

ABBOSIYLAR SAROYIDAGI ASOSIY ODOB-AXLOQ MEZONLARI

Ramatjonova Muxlisa Rixsiboy qizi

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi bitiruvchisi

Annotatsiya: *Maqola Abbosiylar saroyidagi etiket qoidalari haqida yozilgan. Unda saroydagi asosiy odob-axloq mezonlari misollar asosida tushuntirib berilgan. Shu haqdagi manbalardan iqtiboslar olingan.*

Kalit soʻzlar: *Abbosiylar, etiket, poeziya, panegerik, metafora, hoshimiylar, xalifa, vazir.*

Qadimda hukmronlik qilgan har bir sulolaning saroyida asosiy etiket qoidalari ishlab chiqilgan va bunga qatʼiy amal qilingan. Mazkur maqolada Abbosiylar saroyida amal qilish lozim boʻlgan baʼzi etiket qoidalariga toʻxtalib oʻtamiz. Abbosiylar davridagi saroydagi boshqaruv organlari toʻgʻrisida maʼlumot beramiz. Viloyat hokimlari “amir” – “gersog” tituli bilan atalgan. Xalifalik shahzodalari amir nomi bilan atalgan.³⁶

Xalifalikda provinsiyalar federal shtatlar kabi bir-biridan mustaqil boʻlgan. Har bir viloyat Bagʻdodda oʻzining boshqaruv hukumatiga (devon) ega boʻlgan. Har bir boshqaruv organi ikki boʻlimdan iborat boʻlgan. Birinchi boʻlim asosiy boʻlim (asl) deb atalgan va unda soliqlar yigʻish, taqsimlash, oʻlponga oid, umuman boshqaruv masalalari bilan shugʻullanilgan. Ikkinchi boʻlim “moliyaviy muassasa” deb atalgan. Xalifa al-Muʼtadid (892-902) birinchi boʻlib viloyat idoralarini bir-biridan ajratgan. U saroy idoralarini 3 ta boʻlimga ajratgan. Sharqiy hududlar boshqaruvi bilan shugʻullanuvchi boʻlim “devon al-mashriq” deb atalgan, gʻarbiy hududlar bilan shugʻullanuvchi boʻlim “devon al-magʻrib”, Vavilon boshqaruvi bilan shugʻullanuvchi boʻlim esa “devon as-savad” yoki “al-haroj” deb atalgan. 912-yildan, yangi asrdan boshlab, imperiyaning boshqaruv apparati 2 tarmoqqa boʻlindi: ichki ishlar (usul) va moliyaviy masalalar (azimma)³⁷.

Saroyda mavjud boʻlgan har bir mansab egasi qanday xususiyatlarga ega boʻlishi lozimligi toʻgʻrisida chet el olimlari tomonidan yetarlicha maʼlumotlar berilgan. Masalan, hojib lavozimi toʻgʻrisida maʼlumot bersak, Hilol as-Sobiyning “Rusum Dar al-Xilafa” asarining “Hojib xizmati qonunlari va axloq qoidalari” bobida yozilishicha, hojib lavozimida faoliyat yuritish uchun nomzodning yoshi 30 va 50 yosh oraligʻida boʻlishi lozim. Tajribali, vaqtlarda sinalgan, oqil va ehtiyotkor boʻlish ham hojibga qoʻyilgan talablardan hisoblangan.

Xalifa Mansur davridagi bir hikoyada aytilishicha, oʻsha davrda xalifalar oyoqlarini chalishtirgan holda, hashamatli platformada, farsh yopingan holda, qavilgan koʻrpa va yostiqlarda oʻtirishgan. Ular taxtdan uncha farq qilmaydigan stulda oʻtirishgan.

³⁶ Мец А. Мусульманский Ренессанс. –М.: Главная редакция восточной литературы издательства «Наука», 1973. –С. 26.

³⁷ Мец А. Мусульманский Ренессанс. –М.: Главная редакция восточной литературы издательства «Наука», 1973. –С. 27.

Mansurning o'ng va chap tomonini uning yaqin qarindoshlari, masalan, uning o'g'li va vorisi Maxdi (agar Bag'dodda bo'lsa) egallashgan.

Diniy masalalar bilan birgalikda yangi elitaning madaniy jihatga ham qiziqishi ortib bordi. Abbosiylar hukmronligi boshida poeziya juda yuqori baholandi. Panegerik (madhiya) muvaffaqiyatning eng yuksak cho'qqisi hisoblanardi, Abu Tammamning madhga oid poeziyasi juda yuqori baholangan. Uning bir qasidasida xalifa Mutasimning Amoriondagi g'alabasi madh qilingan. Ushbu qasida metafora va qiyoslashdan ajoyib tarzda foydalanilgan yagona asardir.

Nemis tadqiqotchisi N. Elias saroy etiketi va marosimlari jamoani boshqarish mexanizmi kabi katta ahamiyat kasb etishini ta'kidlaydi.

"Etiketga ehtiyoj sezilmaydigan biron-bir soha yo'q. Bu orqali saroy jamoasidagi har bir individ o'zining etiketi bilan oddiy xalqdan farqlanadi",- deb yozadi N. Elias³⁸.

Etiket qirollik uchun faqat farqlanish emas, balki ustunlik va saroy ahllari uchun boshqaruv vositasidir. Abbosiylar saroyidagi an'ana va odatlar xalifani oddiy fuqarolar oldida obro'sini ulug'lash vazifasi bo'lib xizmat qilgan. Ma'lumki IX asr o'rtalariga kelib Abbosiylar saltanati tanazzulga yuz tuta boshladi, xalifalik mustaqil davlatlarga bo'linib ketdi.

Vizantiya va Sosoniylar imperiyasidan farqli ravishda Abbosiylar saroyidagi an'ana va marosimlarning alohida kodeksi bo'lgan va uning bajarilishi haqida alohida qo'llana tuzilgan. Abbosiylar an'ana va etiketi aks etgan keng ko'lamli arab tilidagi adabiyotlar mavjud bo'lgan.

Xalifalik boshqaruvi asosi o'zgarishi bilan uni uslubi ham o'zgardi. Qadimgi sharq saroy an'analari Sosoniylar uslubiga asoslangan.

Xalifaning o'zi fuqarolardan ajralib turgan, uning qabuliga kirish soqchilar orqali nazorat qilingan. Oddiy aholi xalifani faqatgina jamoa majlislarida ko'rishi mumkin bo'lgan. Bu sudga oid ishlar (bunda xalifa yuqori appelyatsiya bosqichida o'tirgan) yoki savdoga oid tadbirlar bo'lishi mumkin edi. Saroy ahllari, xalifaning oilasi, xos xizmatkorlari, soqchilar imperiyaning markazida bo'lishgan. Xalifaning yaxshi va yomon farmonlari xizmatkorlar orqali boshqalarga yetkazilgan. Xalifa har qanday dushmanini tezda yo'q qilishi mumkin edi, ba'zida qatl marosimi to'g'ridan-to'g'ri va oshkora tarzda taxt mavjud bo'lgan zalda o'tkazilardi.

Etiketga muvofiq har bir yig'ilish yoki tadbirda unga muvofiq keladigan mos kiyim kiyish lozim bo'lgan. Ba'zida shunday holatlar ham bo'lganki, xalifalar saroy uchun maxsus kiyimlar joriy qilganlar. Boshqa tomondan qaraganda, kiyimning rangi orqali xalifaning kayfiyati va maqsadini bilish mumkin bo'lgan.

Agar xalifa nimadandir qattiq g'azablangan bo'lsa g'azab kiyimini kiygan (bu qizil rang bo'lgan). O'yin-kulgi qilmoqchi bo'lgan kunlari sariq rangli kiyim kiyishgan. Bunday kunlar odatda, kechki ovqat, shoirlar musobaqasi, musiqa, sport o'yinlaridan iborat bo'lgan. Yevropada bo'lgani kabi Arab xalifaligida ham raqiblarni va xush kelmay qolgan shaxslarni

³⁸ Элиас Н. Придворное общество: Исследования по социологии короля и придворной аристократии, с Введением: Социология и история. М.: Языки славянской культуры, 2002. С - 350.

zaxarlash keng tarqalgan edi. Bunga misol tariqasida xalifa Horun ar-Rashidning xotini Sit Zubaydaning quli tomonidan zaxarlanganligini keltirib o'tishimiz mumkin³⁹.

Etiket va an'analar "itoatli tana" kabi faqat saroy ahlini boshqaruv mexanizmi bo'lib qolmay, balki butun musulmon ummatini boshqarish shakli hisoblangan. Aholi xalifani shaxsan tanimagan. Bu xalifaning poytaxt Bag'dodda xavfsiz yurishi va xalifalik hududida yashovchilarning hayot tarzini shaxsan tekshirishi uchun imkoniyat bergan. Shuning uchun juda ko'p ertaklar "Ming bir kecha" turkumiga mansublari xalifaning uyqusizligidan boshlanadi va u vazir yoki haram og'asini chaqiradi. Shaharni savdogar kiyimida aylanadi. Saroy etiketi va an'analari o'z axloq-qoidalariga ega bo'lgan. Boshqa so'z bilan aytganda, saroy a'zolarining bu sharafga mosligi axloq qonun-qoidalariga rioya qilishi bilan belgilangan.

Saroy etiketi va marosimlarining yana bir funksiyasi g'iybat va fitnalar bo'lgan. Abbosiylar davrida keng tarqalgan josuslik saroy hayotini va xalifaning hayotini asrashga guvohlik beradi. Saroy razvedkasining agentlari mavjud bo'lgan. Xizmatchilar tomonidan josuslikka oid she'rlar to'qilgan. Bu arablarning chiroyli so'zlashuv madaniyatiga bevosita bog'liqdir⁴⁰.

Qachonki amir yoki vazir kabi yuksak martabali inson xalifani oldiga kelsa, qadimgi odatga ko'ra uning qo'lini o'pmas, balki "Senga tinchlik tilayman, ey musulmonlar amiri! Senga Allohning mehribonligi bo'lsin!" – derdi. Xalifaga murojaat qilinganda uning kunyasini aytish shart edi. Xalifa oldiga amir yoki vazir tashrif buyurganida, u yengi bilan qoplangan qo'lini uzatardi. Bu uning maqomini ko'rsatish uchun edi. Agar xalifaning o'g'li bo'lsa, yoki hoshimiylar urug'idan bo'lsa, faqih va qorilar bo'lsa, ular na xalifaning qo'lini, na yerni o'pishmagan. Vazirlar xalifa oldida birinchi o'rinda toza kiyimda va xushbo'y sepib olgan bo'lishi kerak edi.

Xalifa huzuriga kiruvchi inson tishlarini yaxshilab tozalashi va sekin ovoz bilan murojaat qilishi lozim edi. Uning huzurida bahsga kirishish yoki xalifaning ijozatisiz biror narsaga buyruq berishi joiz emas edi.

Menga Ibrohim ibn Hilol (bobom) aytib berdi: bo'lajak vazir al-Hasan ibn Muhammad al-Muhallabiy, bir kuni xalifa al-Muti huzuriga keldi (unga Alloh rahmati bo'lsin!) va baland ovozda gapirgani uchun tashqariga uloqtirildi. Aslida uning ovozi tabiatan baland (yo'g'on) edi. Bundan ko'rinib turibdiki, Abbosiylar saroyida ozodalik hamda madaniyatga nihoyatda katta ahamiyat berilgan⁴¹.

Saroy amaldorlari xalifa va uning yaqinlari orasida u yoq bu yoqqa qarashi, orqasiga qarashi mumkin emas. Xalifa gapirayotganda hech qanday harakat qilmaslik lozim. Suhbat tugagan paytda, saroy xizmatchilari ketayotgan paytda orqasiga qarashi mumkin bo'lmagan. Eng odobli va eng suyuqli xizmatchi hojasi huzurida tuflamaydigan, biror narsani ichib yoki yeb turmaydiganidir⁴².

³⁹ Хуснулин А.А. Придворный этикет и церемониал в эпоху ранних Аббасидов. Сочинения. –Казан, 2013.–С. 3.

⁴⁰ Хуснулин А.А. Придворный этикет и церемониал в эпоху ранних Аббасидов. Сочинения. –Казан, 2013.–С. 4.

⁴¹ Ас-Саби Х. Установления и обычаи двора халифов. –М.: Наука, 1983. –С. 40.

⁴² Ас-Саби Х. Установления и обычаи двора халифов. –М.: Наука, 1983. –С. 37.

Saroyda har bir amaldor tilini boshqa narsalardan tiyishi kerak edi. Aks holda hukmdor bunday odamni jazolashi va uni yodida saqlab qolishi mumkin edi.

Xalifa Ma'mun shunday degan di: "Darhaqiqat, do'st qo'pol muomala sabab dushmanga, dushman esa do'stona muomalasiga ko'ra do'stga aylanishi mumkin". "Tiling bilan o'zingga ofat keltirib, dushman orttirma!" "Aqli insonlarni nuqsonlari kam bo'ladi".

Xalifaning huzurida uning ismini aytish mumkin bo'lmagan.⁴³

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Abbosiylar saroyida etiket qoidalariga juda katta ahamiyat berilgan bo'lib, hattoki bu to'g'rida maxsus saroy amaldorlari uchun dasturulamal tuzilgan. Amaldorlar har bir narsaga nozik did va e'tibor bilan qarashlari lozim bo'lgan. Abbosiylar saroyi qonun-qoidalari juda kam o'rganilgan mavzular sirasiga kiradi. Buni o'rganish asnosida yuqorida keltirib o'tilgan misollardan tortib, saroydagi eng kichik masalalarni ham o'rganish mumkin. Bu orqali abbosiylar sulolasining, qolaversa shu davrda yashagan aholining turmush-tarzi, umuman, mentaliteti haqida atroflicha ma'lumotga ega bo'linadi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR:

1. Мец А. Мусульманский Ренессанс. –М.: Главная редакция восточной литературы издательства «Наука», 1973.

2. Элиас Н. Придворное общество: Исследования по социологии короля и придворной аристократии, с Введением: Социология и история. М.: Языки славянской культуры, 2002.

3. Хуснулин А.А. Придворный этикет и церемониал в эпоху ранних Аббасидов. Сочинения. –Казан, 2013.

4. Ас-Саби Х. Установления и обычаи двора халифов. –М.: Наука, 1983.

⁴³ Ас-Саби Х. Установления и обычаи двора халифов. –М.: Наука, 1983. –С. 31-55.